



Ilmdan ilhomlanish: Yangi yutuqlarga yo‘l

**Xalqaro Nordik universiteti
Psixologiya va maktabgacha
ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchi
Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna**

Ilm – insoniyatning eng ulug‘ qudratidir. U bizni zulmatdan yorug‘likka, bilimsizlikdan anglashga, orzularimizni haqiqatga aylantirishga yetaklaydi. Ilm nafaqat faktlar va raqamlar yig‘indisi, balki bizni ilhomlantiruvchi, o‘z yo‘limizni topishga yordam beruvchi kuch hamdir. Ilmning jozibasi shundaki, u bizni doim yangi yutuqlarga, yangi o‘zgarishlarga undaydi.

Har bir buyuk kashfiyot ortida izlanish va bilim yotadi. Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi allomalar ilmdan ilhomlanib, olamga o‘zgacha nigoh bilan qarashgan. Ular mavjud bilimlar bilan kifoyalanmay, yangisini yaratishga, insoniyatga foyda keltirishga intilishgan.

Bugungi kunda ham ilm hayotimizni tubdan o‘zgartirmoqda. Sun‘iy intellekt, kosmik tadqiqotlar, tibbiyotdagi innovatsiyalar – bularning barchasi ilmga bo‘lgan ishtiyoq natijasidir. Agar biz ilmni chin dildan sevib, undan ilhom olsak, yangi kashfiyotlar yaratishga qodir bo‘lamiz.

Ilmdan ilhom olish uchun uni faqat o‘rganish emas, balki uning mohiyatiga tushunish ham muhim. Ilmni sevgan odam hech qachon o‘qishdan, izlanishdan, yangilik yaratishdan to‘xtamaydi va yomonliklar tomon qiyo ham boqmaydi. Dunyodagi eng muvaffaqiyatli insonlar, olimlar, tadbirkorlar ilm bilan shug‘ullangan va doimo undan ilhom olgan. Masalan, Stiv Jobs yoki Ilon Mask kabi shaxslar ilmiy bilimlarini amaliyotda qo‘llab, butun dunyoga yangilik olib keldi.

Ilm insonni ichki va tashqi jihatdan yuksaltiradi. Uning madaniyati, fikrlash doirasi kengayadi, hayotga yangicha qaraydi. Ilm insonni hur

fikrli, kuchli, jasur qiladi. Unga intilgan kishi muvaffaqiyat va rivojlanish sari yo'l oladi.

Biz ilmni nafaqat o'rganishimiz, balki undan zavqlanishimiz ham kerak. Ilmning sirli olamiga kirgan sari biz o'zimizni yanada ilhomlangan, kuchli va imkoniyatlarga boy his qilamiz.

Xulosa

Ilm – faqat darsliklarda yozilgan bilim emas, u bizni ilhomlantiradigan, yangi imkoniyatlar eshigini ochadigan kuchdir. Uni sevib o'rganan, undan ilhom olgan inson hech qachon ortga qaytmaydi, balki o'z kelajagini, jamiyat kelajagini yorqin qilish uchun harakat qiladi. Har bir ilmga intilgan insonda albatta jamiyat uchun manfaat keltiruvchi maqsadlar bilan bog'langan bo'lsihi kerak. Siz bugun ilmga qanday qadam tashladingiz? U sizni qanday ilhomlantiryapti? Bu savollarni o'zingizga bering va javoblaringizga qarab qaysi nuqtada ekanligingiz ma'lum bo'ladi. Ushbu maqolani yozishda ilhomlangan ilmli insonlarimning maqolalari mavjud.

Adabiyotlar ro'yxati:

Lutfullaeva, N. (2022). RESULTS OF STUDY AND ANALYSIS OF THE PSYCHO-EMOTIONAL STATUS OF THE UNEMPLOYED. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(Maxsus_son), 314-326.

Axmedova, N. (2024). БУГУНГИ ЁШ АВЛОДНИ АХЛОҚИЙ, КОГНИТИВ ВА ЭСТЕТИК ТАРБИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА КИТОБОТ САЊАТИНИНГ ЎРНИ. *Nordic_Press*, 2(0002).

Razzoqova, M. (2024). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI: МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI. *Nordic_Press*, 2(0002).

Egamberdiyeva, M. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIYASIDA XALQ ERTAKLARI VA MAQOLLARNING ROLI. *Nordic_Press*, 3(0003).

Khasanova, M. (2024). The Development of Education in Central Asia During the Jadid Period (On the Example of Preschool Education). *Nordic_Press*, 3(0003).